SUG'URTA TASHKIOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH	783
Xattabov Murodulla Batirovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	788
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	795
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjapova Latofat Sardorovna	
MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVIROPA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li

TDIU Bank ishi kafedrası dotsenti v.b, PhD

Annotatsiya. Maqolada bank tomonidan ko'rsatilayotgan chakana xizmatlarning hozirgi raqamli holati tahlil qilinib, ularning nazariy asoslari muhokama qilingan. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi turdagi bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari yoritilib, ilmiy hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, chakana bank xizmatlari, operatsiyalar, to'lovlar, kredit, depozit.

Abstract. The article analyzes the current digital state of retail banking services and discusses their theoretical foundations. In addition, it highlights the prospects for developing new types of banking services in the context of the digital economy and provides scientific and practical recommendations.

Key words: commercial banks, banking services, operations, payments, credit, deposit.

Аннотация. В статье проанализировано текущее цифровое состояние розничных банковских услуг и обсуждены их теоретические основы. Кроме того, освещены перспективы развития новых видов банковских услуг в условиях цифровой экономики, а также разработаны научные и практические рекомендации.

Ключевые слова: Коммерческий банк, розничные банковские услуги, операционная деятельность, платежи, кредиты, депозиты.

KIRISH

Bugungi kunda masofaviy bank xizmatlari raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Endilikda mablag'larni boshqarish 24/7 rejimida smartfon yoki planshetlar yordamida amalga oshirilishi mijozlarga istalgan joy va vaqtda to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini bermoqda. Bu esa nafaqat qulaylik, balki bank xizmatlarining yangi raqamli formatda rivojlanishiga ham turtki bo'lmoqda.

Banklarning mijozlarga qulaylik yaratish, xizmatlarni avtomatlashtirish hamda masofaviy xizmatlar qamrovini kengaytirish yo'lidagi ishlari natijasida "Internet-banking", "SMS-banking" va "Mobil-banking" tizimlari foydalanuvchilari soni keskin oshmoqda. Raqamli texnologiyalarga asoslangan ushbu xizmatlar moliyaviy savodxonlikni oshirish, aholining bank tizimiga ishonchini mustahkamlash hamda yangi raqamli mahsulotlar yaratishga asos bo'lmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq qabul qilingan me'yoriy hujjatlar raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Unda onlayn axborot taqdim etish tartiblari, iste'molchilarga xizmat ko'rsatishning minimal talablari hamda qarzdorlik yuzaga kelganda bank-mijoz o'zaro munosabatlarining elektron mexanizmlari belgilangan.

Joriy yilda bank tizimini keng transformatsiyalash, zamonaviy biznes modellarini joriy etish va yangi raqamli mahsulotlar ishlab chiqish Markaziy bank va tijorat banklari hamkorligining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlari spektri yil sayin kengayib, bozorda yangi mahsulotlar va xizmatlar paydo bo'lmoqda. Bu esa kredit tashkilotlari o'rtasida raqobatni keskinlashtirib, har bir bankni mijoz bilan munosabatlarni raqamli sheriklik tamoyillari asosida shakllantirishga undamoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Bank chakana xizmatlari bozorida mijozlarning ehtiyojlarini qondirish va xizmatlarni rivojlantirish masalalari ko'plab olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Xususan, rossiyalik olimlar S.V. Sploshnov, N.L. Davidova, A.N. Bulatov, O.I. Lavrushin hamda E.F. Jukovlarning tadqiqotlarida bu masalalar o'z aksini



topgan. A.N. Bulatov samarali bank faoliyatining to'rtta asosiy ustuniga – mijozlar, moliya, jarayonlar va xodimlarga urg'u bergan.

O.N. Shestak esa bank muassasasining mohiyatini tahlil qilib, uni mablag'larni yig'uvchi va qaytarishlik asosida joylashtiruvchi muassasa sifatida ta'riflagan holda, uning faoliyatida aktiv va passiv operatsiyalarni ajratib ko'rsatadi. Ushbu ilmiy qarashlar hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot sharoitida yangicha talqin qilinmoqda. Endilikda bank xizmatlari nafaqat an'anaviy shaklda, balki onlayn platformalar, mobil ilovalar va raqamli ekotizimlar orqali ham taklif qilinmoqda.

Raqamli texnologiyalar bank chakana xizmatlarini tubdan o'zgartirib, mijozlarga shaxsiylashtirilgan mahsulotlar, masofaviy kreditlash, blokcheyn asosidagi hisob-kitoblar va sun'iy intellekt yordamida tezkor moliyaviy maslahatlar taqdim etish imkonini bermoqda. Shu bois, bank xizmatlarini faqat umumiy tartibda emas, balki raqamli transformatsiya va innovatsion xizmatlar istiqbollari nuqtai nazaridan o'rganish dolzarb masalaga aylanmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borishda analitik taqqoslash, mantiqiy va qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash va solishtirish asosida statistik qayta ishlash usullari qo'llanildi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollarini baholash uchun miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini hisoblash hamda raqamli tahlil vositalaridan foydalanildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda banklardan mijozlar talablarini qondirish maqsadida o'z faoliyatini transformatsiya qilish, ya'ni chakana bank mahsulotlari va xizmatlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish va yangi xizmatlarni yaratish talab etilmoqda.

Mavjud savdo kanallarini hisobga olgan holda, rivojlangan filial tarmog'iga ega bo'lgan tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini sotishni tashkil etish jarayoni endilikda quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- to'g'ridan-to'g'ri sotish (an'anaviy filiallar orqali xizmat ko'rsatish);
- kross savdo (bir vaqtning o'zida bir nechta raqamli mahsulotlarni taklif qilish);
- raqamli sheriklik asosida sotish (fintex kompaniyalari bilan hamkorlikda);
- agentlar orqali sotish (onlayn platformalarda integratsiyalashgan xizmatlar);
- elektron kanallar orqali sotish (mobil ilovalar, internet-banking, sun'iy intellekt asosidagi chat-botlar orqali).

Agar ilgari chakana mahsulotlarni sotish asosan to'g'ridan-to'g'ri sotish usuliga tayanilgan bo'lsa, hozirda raqamli iqtisodiyot rivoji natijasida banklar savdo siyosatini yangilab, elektron savdo kanallarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu esa xizmat ko'rsatish jarayonida innovatsion yondashuvlarni, xodimlarni masofadan boshqarish tizimlarini hamda mijozlar bilan interaktiv aloqalarni samarali qo'llash imkonini bermoqda (1-rasm).



1-rasm. To'g'ridan-to'g'ri sotish

Mazkur savdo kanalida mijozlarni jalb qilish jarayoni raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali yanada kengaymoqda. Endilikda tashqi reklama, ommaviy axborot vositalari va Internet reklamalari bilan bir qatorda,



ijtimoiy tarmoqlardagi raqamli marketing kampaniyalari, mobil ilovalar orqali xabarnomalar, onlayn reklama maqolalari va interaktiv aksiyalar mijozlarni jalb etishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu vositalar orqali mijozlar mustaqil ravishda bankka murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'lib, bank xizmatlariga bo'lgan qiziqishini oshirmoqda. Biroq, ushbu usulning asosiy kamchiligi – raqamli reklama kampaniyalarining yuqori xarajatlari va ularning moliyaviy samaradorligini aniq hisoblashdagi qiyinchilikdir.

Shu bilan birga, raqamli faol sotuv kanallari ham shakllanmoqda. Bunda bank mahsulotlarini sotish bo'limi xodimlari an'anaviy qo'ng'iroqlar bilan cheklanmay, balki ma'lumotlar bazalarida mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilish, sun'iy intellekt asosida shaxsiylashtirilgan takliflar yuborish, videokonferensiyalar orqali muloqot qilish va onlayn tijorat takliflarini yetkazish kabi usullardan foydalanmoqda.

Natijada, mijozlarni jalb qilish jarayoni endilikda raqamli iqtisodiyot talablariga mos ravishda tezkor, shaffof va interaktiv shaklga ega bo'lib bormoqda.

Yirik korxonalar hududlarida yangi mijozlarni jalb qilish uchun vaqtinchalik xizmat ofislarini tashkil etish an'anaviy usulda kam qo'llanilsada, natijadorlik nuqtai nazaridan samarali hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda bu jarayonni yanada rivojlantirish uchun korxonada hududida raqamli ofislar yoki mobil bank xizmatlari stendlarini joriy etish mumkin. Bunday ofislar cheklangan vaqt davomida faoliyat yuritib, mijozlarga onlayn maslahatlar berish, hujjatlarni elektron tarzda qabul qilish va tezkor xizmat ko'rsatishni amalga oshiradi.

Bank mahsulotlarini sotishda asosiy harakatlantiruvchi kuch endilikda nafaqat xodimlar, balki raqamli texnologiyalar – mobil ilovalar, sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar va ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlaridir. Mahsulotning raqobatbardoshligi muhim bo'lsa-da, mijozlarni jalb etishda xizmatning qulayligi, shaxsiylashtirilgan yondashuv va raqamli imkoniyatlardan foydalanish hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Shu bilan birga, xodimlar masalasi ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Ularning bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun an'anaviy treninglardan tashqari, onlayn kurslar, virtual simulyatorlar va raqamli o'quv platformalarini joriy etish tavsiya etiladi. Bu yondashuv xodimlarning motivatsiyasini oshirish bilan bir qatorda, yangi bank xizmat turlarini raqamli iqtisodiyot talablari asosida tezkor va samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Bank xodimlarini o'qitish va sertifikatlash jarayoni moliyaviy hamda vaqt xarajatlarini talab qilganligi sababli, ushbu jarayonni raqamli texnologiyalar asosida masofadan tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, onlayn kurslar, videodarslar, virtual simulyatorlar va elektron sertifikatlash tizimlari orqali xodimlarni tayyorlash an'anaviy usullarga qaraganda samaraliroq hisoblanadi. Shu bilan birga, sotish texnologiyalari va mijozlar bilan ishlash bo'yicha ayrim kurslar interaktiv platformalarda professional biznes-trenerlar bilan hamkorlikda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xodimlarning motivatsiyasini oshirish uchun onlayn reyting tizimlari va shaffof baholash platformalari joriy etilishi zarur. Bunda xodimlar o'z faoliyatining natijalariga qarab real vaqt rejimida baho olishlari va avtomatik ravishda bonuslar, qo'shimcha imtiyozlar yoki raqamli sertifikatlar bilan rag'batlantirilishlari mumkin. Bundan tashqari, moliyaviy bo'lmagan motivatsiya mexanizmlari – onlayn o'quv kurslariga kirish, xorijiy tillarni raqamli platformalarda o'rganish, virtual konferensiyalarda qatnashish imkoniyati kabi chora-tadbirlar ham keng qo'llanishi mumkin.

Bank xizmatlarida samaradorlikni oshirish uchun esa sotuvlar va mijozlar faoliyatiga oid barcha jarayonlarni Big Data va sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari orqali kuzatib borish lozim. Bu tizimlar orqali mahsulotlar samaradorligi, operatsiyalarning rentabelligi, mijozlarga xizmat ko'rsatish vaqti, xarajatlar va boshqa ko'rsatkichlar aniq tahlil qilinadi. Natijada banklar nafaqat xodimlarni samarali rag'batlantirish, balki yangi bank xizmat turlarini bozordagi raqobatbardoshlikni oshirishga yo'naltirish imkoniga ega bo'ladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank mahsulotlari, xodimlar va filial ofislarining samaradorligini baholash jarayoni faqat mahsulot shartlariga asoslanishi, uning joylashgan hudud yoki mintaqasiga bog'liq bo'lmasligi muhim hisoblanadi. Shu maqsadda, raqamli analitika va big data texnologiyalari yordamida har bir mahsulotning rentabelligini aniq o'lchash imkoniyati yaratiladi. Amaliy tajriba ko'rsatadiki, hatto eng oddiy raqamli motivatsiya tizimlarini joriy etishning o'zi dastlabki 3–4 oy ichida bank mahsulotlari sotuvini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Bank xizmatlari ofisi menejerlarining motivatsiyasini belgilashda endilikda sun'iy intellekt asosidagi KPI monitoring tizimlari asosiy rol o'ynaydi. Bunda motivatsiya ikki asosiy omilga bog'liq bo'ladi: filialning umumiy moliyaviy natijalari (savdo rejasidan oshib ketishi) va raqamli avtomatlashtirish orqali xarajatlarning kamayishi. Shuningdek, qo'shimcha omillar sifatida xodimlarning o'rtacha me'yorlarni bajarishi, onlayn auditlar davomida qoidabuzarliklarning aniqlanmasligi, kadrlar almashinuvining kamayishi kabi ko'rsatkichlar inobatga olinishi mumkin.

Moliyaviy va operatsion ko'rsatkichlarni birinchi navbatda raqamli mahsulot menejerlari uchun belgilash maqsadga muvofiqdir. Chunki ular nafaqat mahsulotni bozorga taklif qilish shartlari va motivatsiya sxemalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, balki real vaqt rejimida raqamli platformalar orqali tahliliy ma'lumotlarning to'liq monitoringini amalga oshirishi mumkin. Bu esa yangi turdagi bank xizmatlarini samarali rivojlantirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.



Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlari ofisining shtat tarkibini belgilash jarayoni zamonaviy texnologiyalar asosida samarali boshqaruvni talab qiladi. Bunda quyidagi qoidalarga amal qilish muhim:

- Har bir lavozim raqamli HR-platfomalarda standartlashtirilgan ish tavsifiga ega bo'lishi va barcha savdo nuqtalari uchun yagona formatda qo'llanilishi kerak.
- Xodimlar soni mijozlar oqimi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, big data tahlillari orqali optimal nisbatni aniqlash mumkin. Bu esa bank ofislarining an'anaviy formatini o'zgartirishni taqozo etadi.
- Moliya, hisob-kitob, underwriting va ish haqi bo'yicha jarayonlarning maksimal qismi markazlashtirilgan raqamli tizimlar orqali bosh bankda amalga oshirilishi kerak.
- Savdo nuqtalari xodimlari moliyaviy hisobotlar tuzishdan ozod etilib, ularning vazifalari mijozlarga xizmat ko'rsatish va sotuvni rivojlantirishga yo'naltiriladi.
- Rahbar xodimlarning vazifalari raqamli boshqaruv vositalari yordamida kassa intizomi, reklama, davlat organlari va VIP mijozlar bilan aloqalarni nazorat qilish bilan chegaralanishi lozim. Yangi mijozlarni jalb qilish va mavjud mijozlar bilan ishlash jarayonlari esa zamonaviy CRM tizimlari orqali boshqarilishi mumkin.
- IT xizmatlarini, imkon qadar, outsourcing va bulut texnologiyalari orqali tashqi kompaniyalarga topshirish bankning xarajatlarini kamaytiradi va moliyaviy tahlilni soddalashtiradi.
- Savdo va mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi xodimlarning soni avtomatlashtirilgan hisobotlar va sun'iy intellekt asosidagi yuklama tahlillari orqali aniqlanishi kerak. Bunda operatsiyalar soni, ularning bajarilish vaqti hamda xizmat ko'rsatish sifati asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Shu tarzda, raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlari ofislarini qayta tashkil etish nafaqat resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi, balki yangi bank xizmatlari turlarini samarali rivojlantirish uchun ham mustahkam zamin yaratadi.

O'sish to'g'risidagi qaror bank xizmatlari ofisi chegara qiymatlariga etganda avtomatik ravishda qabul qilinishi kerak. Mahsulotni sotish texnologiyalarining o'zgarishi bilan, bitta operatsiya uchun vaqtni zudlik bilan ko'rib chiqish va hisoblash algoritmini o'zgartirish kerak. Savdo jarayonining holatini tezkor tahlil qilish, mahsulot menejerlarining ishini baholash va nazorat qilish, potensial mijozlar bilan munosabatlarning hozirgi holati, potensial va joriy mijozlar ma'lumotlar bazasini yaratish uchun bankda bank boshqaruvi, mahsulot menejerlari va boshqalar uchun ruxsat beruvchi dastur bo'lishi kerak.

Mavjud mijozlar bilan samarali ishlash uchun potensial mijozlar ma'lumotlar bazasini va mijozlar ma'lumotlar bazasini birlashtirish, mijozlarning faoliyatini to'xtatish sabablarini tahlil qilish va bankka sodiqlik bazasini yaratish orqali erishish mumkin.

Kross savdo deganda, mahsulotni paketli sotish tushunilmasligi kerak (mijoz depozitga mablag' qo'ydi va debet karta va Internet-bankingni qo'shimcha sotib oldi), balki bank xodimlari tomonidan ushbu xodimning vakolatiga kirmaydigan mahsulotlarni ongli ravishda sotish va har biri uchun pul mukofoti (bonus) olish tushunilishi kerak.

Kross savdoni amalga oshirishning asosiy muammolari quyidagilar:

- bank rahbariyatining xodimlarga qo'shimcha bonuslar to'lash istagi yo'qligi;
- noaniq motivatsiya;
- sotishni amalga oshirgan xodim o'rtasida aniq o'rnatilgan aloqaning yo'qligi (oldindan sotish) va mahsulotni ushbu mijozga sotish yuz bergani;
- kross savdo kabi savdo kanalining muvaffaqiyatli ishlashi uchun, birinchi navbatda, sotuvchi xodimni o'qitish kerak. Shu bilan birga, kross savdoni amalga oshirishni va buning uchun pul mukofotini olishni istagan xodim ixtiyoriy ravishda tegishli o'quv kursi uchun sertifikatlashdan o'tishi kerak. Bunda mahsulotning asosiy parametrlari bilan tanishish taklif etiladi.

O'qimagan xodim kross mahsulotni sotish huquqiga ega emas. Sertifikatlashdan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng, xodim ma'lum bir mahsulotni sotish uchun sotishni hisobga olish dasturiga kirish huquqiga ega bo'ladi va mahsulotni oldindan sotishni qayd etishi mumkin. Bankda kross savdoning joriy etilishi nafaqat xodimlarning sodiqligini oshiradi, balki xodimlarning bank mahsulotlari haqidagi bilimlarini oshirishga olib keladi, bu esa motivatsiyani hisobga olgan holda sotuvlar sonining ko'payishiga olib keladi.

Agentlik savdosi. Agentlik savdosini tashkil etish kross savdoni tashkil etishga juda o'xshash, ammo o'ziga xos xususiyatlarga ega. Agentlar deganda biz bank uchun mijozlarni qidiradigan va jalb qiladigan va ushbu xizmat uchun tegishli haq oladigan shaxslarni tushunamiz.

Kross savdo bilan bog'liq agent savdosida qo'shimcha muammolar quyidagilar:

- agentlarni ro'yxatdan o'tkazish;
- agentlik shartnomasini chop etish, imzolash va bekor qilish uchun ko'p vaqt hamda pul sarflanadi;
- yangi agentlarni qidirish;
- qayta aloqalarni olish;
- agentlarni tayyorlash va sertifikatlash jarayonini tashkil etish.



Ushbu muammolarni hal qilishning yagona qulay mexanizmi, albatta, internetdir. Bank veb-saytidagi agentlar agentlik shartnomasini qabul qiladilar va login va parol bilan sotishni nazorat qilish dasturiga cheklangan kirish huquqini oladilar. Ushbu dasturda agent oldindan sotish, reytinglar va kerakli hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'ldirishdan tashqari, o'qitish, sertifikatlash, shaxsiy rahbarining aloqalarini olish, sotish tarixini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Internetdan tashqari, yangi agentlarni (odatda magistrantlar yoki ish tajribasiga ega bo'lmagan yoshlarni) qidirish funksiyalari bank xizmatlari ofisi boshlig'ining o'rinbosariga yuklanishi kerak. Shuningdek, bank bilan ish haqi loyihalari bo'yicha hamkorlik to'g'risida shartnomalar tuzgan tashkilotlarning kadrlar bo'limlari xodimlarini agent sifatida jalb qilish istiqbolli. Agentlar uchun qo'shimcha motivatsiya qo'shimcha o'quv kurslariga kirish, bankda ish topish imkoniyati bo'lishi mumkin.

Barcha agentlarni chakana bank mahsulotlarini professional sotuvchilar darajasiga o'rgatish qimmat va foydasiz ishdir, shuning uchun agentlarning asosiy vazifalari sotishdan oldin va ko'plab potensial mijozlarni xabardor qiladigan reklama bo'lishi kerak. Ya'ni, funktsionallik nuqtai nazaridan agent potensial mijozni topishi va qiziqirishi va savdo nuqtalarining doimiy ishchilari tomonidan sotuvlarni keyinchalik ro'yxatdan o'tkazish uchun mijoz to'g'risidagi ma'lumotlarni savdo bazasiga kiritishi kerak.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, chakana biznes bilan shug'ullanadigan ba'zi banklarning veb-saytlarida hali ham bank mahsulotlarini (kreditlar, bank kartalari, tangalar) sotib olish uchun on-layn arizalar uchun namunalar mavjud emas. Mijozlarni bank veb-saytiga jalb qilishning yana bir muhim omili, shuningdek, bankning internetdagi reklamasi va bank xodimlari (odatda Call-Markaz xodimlari) tomonidan forumlarda, ijtimoiy tarmoqlarda va hokozalarda bank mahsulotlari va xizmatlari to'g'risida to'g'ri ma'lumot berishidir. Bankomatlar, axborot kiosklari va to'lov terminallariga kelsak, kommunal va boshqa to'lovlarni to'lash funksiyalarini va mijozlar bilan interaktiv muloqot usullarini ishlab chiqishda biz asosiy bank mahsulotlarini sotish kredit olish yoki to'lash, ochish yoki o'tkazish haqida unutmashimiz kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida har bir savdo kanali o'ziga xos qiymatga ega bo'lib, u ma'lum bir mijozlar segmentini qamrab oladi. Shu bois, bir yoki bir nechta raqamli savdo kanallarini e'tiborsiz qoldirish muqarrar ravishda ushbu segmentni yo'qotishga olib keladi. Bugungi kunda yirik kredit tashkilotlari, telekommunikatsiya operatorlari va mikromoliya kompaniyalari bilan bir qatorda, Google, Apple, Facebook, Microsoft kabi global IT kompaniyalarining moliya bozoriga kirib kelishi kutilmoqda. Bu esa banklardan innovatsion texnologiyalarni joriy etishni, xodimlarni zamonaviy raqamli ko'nikmalar bilan ta'minlashni va barcha savdo kanallaridan maksimal samaradorlik bilan foydalanishni talab etadi.

Boshqacha qilib aytganda, mijozlarning ehtiyojlariga mos keluvchi raqamli xizmatlar spektrini kengaytirib borish va yangi bank mahsulotlarini yaratish banklarning chakana xizmatlari rivojlanishida asosiy mezon sifatida qaralishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
2. Bankovskoe delo : uchebnyk / pod red. d-ra ekon. nauk, prof. G. G. Korobovoy. – 2-e izd., pererab. i dop. – M. : Magistr : INFRA-M, 2019. – 592 s.
3. A.N.Bulatov «Effektivniy bank» razbita na chetire tradisionnix razdela – Klienti, Finansi, Prosessi i Personal. / Sozdano v intellektualnoy izdatelskoy sisteme Ridero, 2019 g
4. S.V.Sploshnov, N.L.Davidova Bankovskiy roznichniy biznes. – Minsk: Visheyshaya shkola,, 2012. – 189 s.
5. Shestak O. N. Roznichniy biznes banka : ucheb. posobie / O. N. Shestak, L. P. Levchenko. – Minsk: Visheyshaya shkola, 2014. – 143 s.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>